

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

DEKABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xalilov Oybek, Axadova Diёra

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕТРОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ
УСИЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МЕТРОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ 5-14

TARIX FANLARI

Narimov Asadbek

XIVA XONLIGINING XVIII–XIX ASRLARDAGI TASHQI SIYOSATI 15-17

IQTISODIYOT FANLAR

Murtazayev Isabek

SAMARQAND VA NAVOIY VILOYATLARINING MINTAQAVIY SALOHİYATI HAMDA TARMOQ
STRUKTURASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI 18-21

Pulatov Dilshod, Son Evgeniya

MEDIUM TERM BUDGETING AS A LINK BETWEEN WIDE FISCAL POLICY PURPOSES AND
BUDGETING 22-25

Маджитова Лолахон

ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ И
ФИНТЕХ-СТАРТАПОВ 26-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ubbiniyazova Jamila

ЕПИК QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ALPAMIS»
MISOLIDA) 31-34

Хакимова Дилдора

БИЛИНГВИЗМ В МНОГОЭТНИЧНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА: САМАРКАНД–БУХАРА–
ТАШКЕНТ КАК СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ 35-38

Matmurodov Xojimurod

REY BREDBERINING MARSGA HUYUM ASARI BILVOSITA TARJIMASIDA RANG NOMLARINING
TAHLILI 39-42

Muzaffarov Javlon

JON TOLKIN IJODIDA GERMAN VA SKANDINAV EPOSI KUCHI VA TA'SIRI 43-46

YURIDIK FANLAR

G'ulommamatova Parvina

KRIPTO-AKTIVLAR ORQALI PUL YUVISHGA QARSHI KURASH: XALQARO HUQUQIY
MEXANIZMLAR 47-52

Normurodova Behro'za

IJTIMOY TARMOQLARDAN RAQAMLI DALIL TO'PLASHDA FOYDALANUVCHI HUQUQLARI VA
DAVLAT MANFAATLARI TO'QNASHUVI: XALQARO-HUQUQIY JIHATLAR 53-59

Караходжаева Окилахон

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ 60-63

PEDAGOGIKA FANLARI

Haqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SOG'LIG'INI SAQLASHDA PSIXOLOGIK MASLAHAT VA
PEDAGOGIK TRENINGLARNING ROLI 64-68

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN ILMIY
LOYIHALAR TAJRIBASI 69-73

Turaxodjayeva Zulxumor

RAQAMLI HIKOYACHILIK (DIGITAL STORYTELLING) ASOSIDA AXLOQIY TARBIYA: SINFDAN
TASHQARI FAOLIYATDA QO'LLASH 74-76

Butayev Norbek

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 77-80

Jonibekova Mehriniso

REFLECTIVE PRACTICE AS A WAY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL IDENTITY OF
TEACHERS 81-83

TIBBIYOT FANLARI

Нурмаматова Нугина

ОСОБЕННОСТИ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ АФФЕКТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ ПРИ
ДЕМЕНЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И КЛИНИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД 84-86

PSIXOLOGIYA FANLARI

Rahmatullayeva Mushtariy

IJODIY FIKRLASH VA AQLIY INTELLEKT MODELINING UMUMIY XUSUSIYATLARI 87-91

TARIX FANLARI

XIVA XONLIGINING XVIII–XIX ASRLARDAGI TASHQI SIYOSATI

Narimov Asadbek Yangabay o'g'li

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 1-son politexnikumi

Tarix fani o'qituvchisi

Email: asadbeknarimov700@gmail.com

Tel: +99897 357 45 44

Qoraqalpog'iston, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligining tashqi siyosiy faoliyati, mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar va xonlikning qo'shni davlatlar bilan munosabatlari keng qamrovli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eron, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, qozoq juzlari hamda Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqa va harbiy-siyosiy munosabatlarning shakllanish jarayoni tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Tezis Xiva xonligining savdo yo'llarini nazorat qilishdagi o'rni, xalqaro karvon xavfsizligi, asirlar masalasi, quldorlik tizimi hamda Rossiya ekspeditsiyalarining xonlik siyosatiga ta'sirini ilmiy asosda ochib beradi. Shuningdek, xonlikning XVIII asrda nisbatan mustaqil tashqi siyosat olib borishi, XIX asrda esa Rossiya bosimi kuchayishi natijasida strategik yo'nalishlarning o'zgarishi ko'rsatib beriladi. Ushbu tadqiqot Xiva xonligining mintaqaviy siyosiy tizimidagi o'rni va tarixiy ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, tashqi siyosat, diplomatiya, Eron, Buxoro, Qo'qon, qozoq juzlari, Rossiya imperiyasi, savdo yo'llari, karvon xavfsizligi, quldorlik, harbiy yurishlar, protektorat, geosiyosat, mintaqaviy raqobat.

FOREIGN POLICY OF THE KHIVA KHANATE IN THE 18TH–19TH CENTURIES

Narimov Asadbek Yangabay ugli

History teacher, Polytechnic School No. 1,

Tortkul District, Republic of Karakalpakstan

Annotation. This thesis comprehensively analyzes the foreign policy activities of the Khiva Khanate in the 18th–19th centuries, geopolitical processes in the region, and the khanate's relations with neighboring states. Drawing on historical sources, the study examines diplomatic interactions and military-political connections with Persia, the Bukharan Emirate, the Kokand Khanate, Kazakh confederations, and the Russian Empire. Special attention is given to the khanate's control over trade routes, caravan security, the issue of captives, the functioning of the slave system, and the impact of Russian expeditions on Khiva's political orientation. The article highlights how the khanate sought to maintain relative independence in the 18th century, while increasing Russian pressure in the 19th century led to strategic shifts and eventual subordination. This research deepens the understanding of the Khiva Khanate's role within the regional political system and its broader historical significance.

Key words: Khiva Khanate, foreign policy, diplomacy, Persia, Bukhara, Kokand, Kazakh tribes, Russian Empire, trade routes, caravan security, slavery, military expeditions, protectorate, geopolitics, regional competition.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i11/n02>

Kirish

XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligi Markaziy Osiyodagi eng muhim siyosiy tuzilmalardan biri hisoblangan. Mazkur davr mintaqada geosiyosiy vaziyatning keskin o'zgarishi, qo'shni davlatlar o'rtasidagi kuch munosabatlarning qayta shakllanishi bilan tavsiflanadi. Eron (Safaviylar, keyinchalik Afshoriylar va Qojarlar davlati), Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, qozoq

juzlari va Orenburg orqali kengayib borayotgan Rossiya imperiyasi bilan o'zaro aloqalar Xiva tashqi siyosatining asosiy vektorlarini belgilab berdi.

Xonlikning tashqi siyosati ko'p jihatdan strategik-geografik sharoit, Amudaryo havzasi savdo yo'llari, transchegaraviy chorvador qabilalar, quldorlik tizimiga asoslangan iqtisodiyot hamda qo'shni davlatlar bilan harbiy-siyosiy raqobat kabi omillar bilan belgilanardi. Tarixiy manbalar (Abulg'ozzi Bahodirxonning asarlari, rus elchilarining kundaliklari, Sharq manbalari) Xiva diplomatiyasining murakkab, ko'p qirrali va moslashuvchan xususiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Asosiy qism

1. Xiva xonligining Eron bilan munosabatlari

XVIII asrda Xiva-Eron aloqalarining asosiy mazmuni Amudaryo bo'ylaridagi strategik nazorat, savdo karvonlarining himoyasi va hududiy ziddiyatlar bilan bog'liq edi. Nadirshohning (1736-1747) Movarounnahrda yurishlari davomida Xiva bir necha bor Eron bosimiga uchragan. XIX asrga kelib Qojarlar davlati Xiva bilan asosan savdo va diplomatik rishtalarni davom ettirdi. Xonlikdan Eron ipagi, gilamlari, metall buyumlari olib kelingan, evaziga Xivadan quldorlik tizimi tufayli shakllangan qul bozori orqali qullar eksport qilingan [6:81].

2. Buxoro amirligi bilan o'zaro raqobat va hamkorlik

Xiva va Buxoro o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha raqobat tabiati bilan ajralib turadi. Amudaryoning quyi oqimidagi hududlar, Xorazmning chekka tumanlari uchun kurash ikki davlatni bir necha bor harbiy to'qnashuvlarga olib kelgan. XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxon I va Mir Haydar boshchiligidagi Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik muzokaralar har ikki davlatning Rossiya bosimiga qarshi muvozanatni saqlashga intilganini ko'rsatadi [8:19].

3. Qo'qon xonligi va qozoq juzlari bilan munosabatlar

Qo'qon bilan munosabatlar XVIII asr oxirida nisbatan cheklangan bo'lsa-da, XIX asrda ikkala davlatning Farg'ona-Xorazm savdo yo'llari ustidan mas'uliyati kuchaydi. Qozoq juzlari bilan aloqalar esa ko'proq chorvador qabilalar o'rtasidagi transchegaraviy harakat, yaylovlar va savdo yo'llari ustidan nazorat bilan bog'liq edi. Xiva qozoq bahodirlarini o'z ta'sir doirasida saqlashga intilgan; bu esa ba'zan ittifoq, ba'zan to'qnashuvlarga sabab bo'lgan [7:65].

4. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalari

XVIII asrda boshlanib, XIX asrda kuchaygan Rossiya-Xiva munosabatlari xonlik tashqi siyosatining eng murakkab yo'nalishi bo'ldi [2:29].

4.1. XVIII asr missiyalari


Orenburg komissiyasi orqali Rossiya Xivaga bir necha diplomatik missiyalar yuborgan. 1717 yilda B. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi; ammo 1740-60 yillardan boshlab savdo va diplomatik kanallar asta-sekin tiklandi [5:34].

4.2. XIX asrda siyosiy bosimning kuchayishi

Xiva bozorlaridagi rus asirlari muammosi, karvon yo'llarining xavfsizligi va Amudaryo deltasini nazorat qilish masalasi Rossiya tashqi siyosatida markaziy o'rin tutdi. 1839-1840 yillardagi Perovskiy ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsa-da, 1873 yilda general K. P. Kaufman boshchiligidagi harbiy yurish xonlikni Rossiya protektoratiga aylantirdi [8:47].

4.3. Savdo va iqtisodiy aloqalar

Rossiya paxta, ipak, teri, qurol-aslaha va boshqa mahsulotlarni Xiva orqali import qilgan. Orenburg orqali o'tgan savdo yo'llari xonlik iqtisodiy hayotining muhim qismi bo'lib, diplomatik muzokaralarning asosiy motivlaridan biri hisoblangan[5:84].



Xiva xonligining XVIII–XIX asrlardagi tashqi siyosati

Xulosa

XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligining tashqi siyosati ko'p yo'nalishli, murakkab va o'zgaruvchan jarayon bo'lib, uning strategiyasi geografik, iqtisodiy va harbiy omillar bilan belgilanardi. Xonlik Eron, Buxoro, Qo'qon, qozoq juzlari bilan o'zaro murakkab munosabatlarni olib borgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi bilan aloqalar esa mintaqadagi geosiyosiy kuchlar muvozanatini tubdan o'zgartirgan omil sifatida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asr oxiriga kelib, Rossiya protektorati ostiga o'tish xonlikning tashqi siyosiy mustaqilligini shakllan saqlagan bo'lsa-da, amalda uning xalqaro munosabatlarda mustaqil pozitsiya tutish imkoniyatini chekladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Tolstov S. P. Древний Хорезм. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948.
2. Yusupov X. Xiva xonligining siyosiy tarixi (XVIII–XIX asrlar). – Toshkent: Universitet, 2010.
3. Аничков Е. В. Хивинское ханство и Россия в XVIII–XIX вв. – Москва: Наука, 1984.
4. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1927.
5. Голубев А. Х. Русско-хивинские отношения в XVIII–XIX веках. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001.
6. Мунисуллам М. Фирдаус ул-икбал (tanqidiy matn). –Ташкент: Фан, 1991.
7. Ормонбеков К. Хива хонлиги тарихидан lavhalar. – Тошкент: Университет, 2005.
8. Семенов А. А. Политическая история Хивинского ханства. – Ташкент: Средазкнигоиздат, 1954.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, dekabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.